

O`ZBEKISTONDA IJTIMOIY SIYOSATI ISLOHOTLARI

IBRAGIMOV JAHONGIR TOSHNIYOZIVICH

Samarqand davlat universiteti Kattaqo`rg`on filiali o`qituvchisi

LUXMONOV O`RALXON MASHRAB O`G`LI

Samarqand davlat universiteti Kattaqo`rg`on filiali 3-kurs talabasi

MURODULLAYEVA ZARINA

Samarqand davlat universiteti Kattaqo`rg`on filiali 3-kurs talabasi

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada O`zbekistonda ijtimoiy siyosiy islohotlari, islohotlarning tarixi haqida, aholi keng qatlamlari tomonidan qo`llab-quvvatlanayotganligi haqida, ijtimoiy himoya siyosati, O`zbekistonda bandlik siyosati bozor iqtisodiyotiga o`tishi, odamlarning ekologik muhitda yashashini ta`minlash, maktabgacha ta`lim muassasalari tarmog`ini kengaytirish haqida tanishib chiqilgan.

KALIT SO`ZLAR: O`zbekistonda ijtimoiy siyosiy islohotlari, bozor iqtisodiyotiga o`tishi, Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari, amalga oshirilayotgan tadbir-choralar, aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta`minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklanganlar.

Kirish. Aholi keng qatlamlari tomonidan qo`llab-quvvatlanayotgan va xalqimiz tarixidan keng o`rin olgan mustaqil hamda barqaror fuqarolik institutlari demokratik qadriyatlar, inson huquqlari, erkinligi va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda muhim omil bo`layotgani, fuqarolarning o`z salohiyatini ro`yobga chiqarishi, ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilayotgani ta`kidlandi. Bunda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyilining izchil amalga oshirilishi muhim omil bo`lmoqda. Mazkur tamoyilga binoan nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari, kasaba

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

uyushmalari, jamoat birlashmalari, jamg‘armalar va mustaqil ommaviy axborot vositalarini shakllantirish hamda rivojlantirishning mustahkam qonunchilik va me’yoriy-huquqiy bazasi yaratilgan.

O’zbekistonda Iqtisodiyoti tizimi 20-asrning 20-yillaridan boshlab shakllana boshladi. 90-yillarga kelib, bozor iqtisodiyotiga o’tish asosida amaldagi islohotlarga mos ravishda yangidan shakllandi. Ayniqsa, milliylik, o’zlikni anglash, e’tiqod va an’analarning tiklanishi ijtimiy himoya tizimiga muhim yangilik bo’lib qo’shildi.

O’zbekistonda aholini Ijtimoiy himoya qilish iqtisodiy islohotlar dasturidagi uzlucksiz ustuvor yo’nalishlardan biriga, ya’ni islohotlarning hamma bosqichlarida ustuvor hisoblanadigan vazifalar qatoriga kiradi. Mamlakatda ijtimoiy yo’naltirilgan bozor iqtisodiyoti barpo qilishda davlat tomonidan kuchli Ijtimoiy himoya-siyosati olib borilmoqda. Kuchli ijtimoiy siyosat O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’lining yetakchi tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Respublikada Ijtimoiy himoyaning huquqiy muhiti yaratildi, unga qonuniy asos solindi ijtimoiy himoya tamoyillari O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlanib, qabul qilingan qonunlarda o’z aksini topdi. Mamlakatda daromad olishning kafolatlanishi amalga oshirildi. Keng miqyosda yangi ish joylari yaratilishi aholini ish bilan ta’minlash ishsizlik muammosini hal qilmoqda (mamlakatda ishsizlikning statistik ko’rsatkichi - 0,5-0,6%). Bunda, ayniqsa, kichik va o’rta biznespi rivojlantirish, kasanachilik qo’l kelmoqda. Tovarlar sifati, aholiga xizmat ko’rsatish sohalarida amalga oshirilayotgan tadbir-choralar iste’molchilar himoyasini shakllantirib, aholi manfaatlarini ta’minlamoqda. Inflyasiyaning oldini olish, so’mning harid kuchini saqlash, biznes-tijorat ustidan davlatning maromiy nazoratini o’rnatish, marketing , savdo, reklama kabilarni tartiblashtirish I.h. ni rivojlantirmoqda. Ekologiya bilan bog’liq bir qancha katta himoyalash ishlari amalga oshirilib, suv, havo, yer va mahsulot tozaligiga erishilmoqda.

“O’zbekiston Respublikasi aholisini 2010 yilgacha bo’lgan davrga mo’ljallangan ijtimoiy himoya tizimining yagona konsepsiysi” ishlab chiqilgan. Unda Respublikada mavjud bo’lgan Ijtimoiy himoya va ijtimoiy yordam, pensiya ta’mnoti, bolalarga nafaqa to’lash, yolg’iz kek-salarga xizmat ko’rsatish,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

nogironlarni protez-ortopediya buyumlari, harakatlanish vositalari bilan ta'minlash, shuningdek, tibbiy, mehnat va ijtimoiy jihatdan tiklash, tibbiy xizmat, ishsizlarni ishga joylashtirish va moddiy yordam berish, bir yo'la (nomuntazam) yordam tizimlari asoslarida amalga oshirilishi belgilangan.

2. Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi, sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, aholini uy-joylar bilan ta'minlash.

Bandlik yoki aholini ish bilan ta'minlash - mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi; fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lган va qonunlarga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyati. Bandlik xodimni ijtimoiy mehnat taqsimotiga asoslangan aniq mehnat kooperatsiyasiga jalb etish bo'yicha kishilararo munosabatlarni ifoda etadi. Bandlik turli mulkchilik shakllaridagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda yollanib ishlash bilan cheklanmay, ayni paytda tadbirdorlikni, o'zini ish bilan mustaqil ta'minlash (o'zicha bandlik)ni, shaxsiy tomorqa xo'jaligidagi ishni, uy xo'jaligida band bo'lish va bolalarni tarbiyalash bilan shug'ullanish, davlat va jamoat vazifalarini bajarishni, o'rta maxsus va oliv o'quv yurtlarida kunduzgi o'qishni ham o'z ichiga oladi. O'zbekistonda bandlik siyosati bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida, ya'ni 1990-yillarda shakllangan. Mamlakatda aholini ish bilan ta'minlash, insonni ishli bo'lish huquqlarini ro'yobga chiqarish kafolatlari „Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida“gi qonunida (1992-yil 13-yanvar; 1998-yil 1-mayda yangi tahrirda qabul qilingan) belgilab berilgan. O'zbekistonda bandlik muammolari katta e'tiborni talab etadi, chunki respublikada murakkab demografik vaziyat mavjud, aholining tabiiy o'sish sur'atlari yuqori, aholi tarkibida yoshlar ko'pchilikni tashkil etadi, aholining ko'p qismi qishloqlarda yashaydi. 1998-yil O'zbekistonda mehnatga layoqatli aholining 33,9 % davlat sektori korxona va tashkilotlarida, 66,1 % esa nodavlat sektori obyektlarida, jumladan xususiy xo'jaliklarda (2,7 %) ish bilan band edi.[1] Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida mulkchilikning turli shakllari paydo bo'lishi tufayli nodavlat sektorida ishlovchilar soni ortib bordi. Ularning bandligi 1994 - 96 yillarda 12 % ga ortdi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Mehnatga layoqatli aholining ish bilan band bo'lмаган qismi ishsizlarni tashkil etadi.

Aholi bandligini oshirish bo'yicha asosiy tadbirlar ish bilan band bo'lган aholining tarkibiy jihatdan qayta taqsimlash hamda mehnatga layoqatli yoshlarni yangi ilg'or tarmoqdar va sohalarga jalb qilish bo'lib, bu esa o'z navbatida mehnat salohiyatidan samarali foydalanishning muhim zaxirasi hisoblanadi. O'zbekiston qishloq xo'jaligida barcha ijtimoiy ishlab chiqarish xodimlarining uchdan bir qismidan ko'prog'i band. Ularning ma'lum qismini bo'shatib olish va iqtisodiyotning boshqa sohalariga, eng avvalo, sanoatga va xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirish, noqishloq xo'jaligi ish joylarini yaratish, mehnatni tashkil etishning ilg'or uslublarini qo'llash, o'smirlarni, ko'p bolalik ayollarni, pensionerlarni va nogironlarni iqtisodiy rag'batlantiruvchi ish bilan ta'minlash, ishsizlikni kamaytirish, mehnat birjalari faoliyatini yaxshilash kabi tadbirlar aholining ish bilan bandligini oshirishga olib keladi.

- ❖ uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;
- ❖ uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;
- ❖ ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya asboblari, komp yuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish;
- ❖ maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish;

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- ❖ umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish;
- ❖ bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga, ularni musiqa hamda san'at dunyosiga jalg qilish maqsadida yangi bolalar sporti ob'ektlarini, bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, mayjudlarini rekonstruksiya qilish;
- ❖ aholining communal-maishiy xizmatlar bilan ta'minlanish darajasini oshirish, eng avvalo, yangi ichimlik suvi tarmoqlarini qurish, tejamkor va samarali zamonaviy texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali qishloq joylarda aholining toza ichimlik suvi bilan ta'minlashni tubdan yaxshilash;
- ❖ odamlarning ekologik muhitda yashashini ta'minlash xavfsiz, maishiy chiqindilarni qayta ishslash komplekslarini qurish va modernizasiya qilish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, aholini chiqindini yo'q qilish bo'yicha zamonaviy ob'ektlar bilan ta'minlash;
- ❖ aholiga transport xizmati ko'rsatishni tubdan yaxshilash, yo'lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atrof muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish, har tomonlama qulay yangi avtobuslarni sotib olish, avtovokzal va avtostansiyalarni qurish hamda rekonstruksiya qilish;
- ❖ yo'l infratuzilmasi qurilishi va rekonstruksiya qilinishini davom ettirish, eng avvalo, mintaqaviy avtomobil yo'llarini rivojlantirish, xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini, aholi punkti ko'chalarini kapital va joriy ta'mirlash;
- ❖ aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;
- ❖ aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltirgan holda

sog'liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloq qilish.

Shu o'rinda yana shuni takidlash joizki, O'zbekistonda ijtimoiy siyosiy islohotlari har bir fuqaro uchun mas'uldir va ishtirok etishlari kerak deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, aholi bandligini oshirish bo'yicha asosiy tadbirlar ish bilan band bo'lgan aholining tarkibiy jihatdan qayta taqsimlash hamda mehnatga layoqatlari yoshlarni yangi ilg'or tarmoqdar va sohalarga jalb qilish bo'lib, bu esa o'z navbatida mehnat salohiyatidan samarali foydalanishning muhimdir. Xalqimiz tarixidan keng o'rin olgan mustaqil hamda barqaror fuqarolik institutlari demokratik qadriyatlar, inson huquqlari, erkinligi va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda muhim omil bo'layotgani, fuqarolarning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi, ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilayotganligini inobatga olib bular kelajakda o'zining ijobiy holatini ko`rsatadi deb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.09.2017 yildagi PF-5185-son O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MA'MURIY ISLOHOTLAR KONSEPSIYASINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.12.2022 yildagi PF-269-son YANGI O'ZBEKISTON MA'MURIY ISLOHOTLARINI AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA
3. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017.
4. O'zbekiston tarixi. 3-kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi. T.Sharq. 2011.
5. Mustakil O'zbekistan tarixining dastlabki saxifalari. - Toshkent, 2000.
6. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Mas'ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: Akademiya, 2013.
7. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at // M.Abdullayev va boshqalar: to'ldirilgan uchinchi nashr. - Toshkent: Sharq, 2006.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

8. Noveyshaya istoriya O'zbekistana. Rukovoditel' proyekta i redaktor: M.A.Raximov. - Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018.
9. Usmonov Q. va boshqalar. O'zbekiston qaramlik va mustaqillik yillarda. T., O'qituvchi, 1996.
10. O'zbekiston Respublikasi: Mustaqil davlatning bunyod bo'lishi. T., O'zbekiston, 1992
11. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., O'zbekiston, 2012
12. O'zbekiston tarixi. R.H.Murtazayevaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent, 2005.
13. O'zbekiston xalqining dini, madaniyati va urf-odatlari: tarix va hozirgi holat. - Toshkent: TIU, 2011.
14. O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi. T.: Sharq, 2000.